



INTERFAOL TA'LIM USLUBLARNI MAZMUNI VA MOHIYATI

Asomova Dilnoza Fazlitdinovna

Ilmiy tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10516696>

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiyalar, interaktiv metod, yangilik kiritish, musiqiy faoliyatlar, texnologik xarita, bilim, ko'nikma, malaka.

Annotatsiya

Ushbu maqolada musiqa darslarida interfaol uslublarini qollash orqali ko'nikma va malakalar ustida ishlash, noan'anaviy musiqa madaniyati darslarini sifatli va salohiyatli olib borish, yangi pedagogic texnologiyalardan, texnik usul va vositalardan, milliy va evropa cho'lg'u asboblardan foydalanish, usullari bayon etilgan.

Аннотация

В данной статье описаны методы работы над умениями и компетенциями путем использования интерактивных методов на уроках музыки, качественного и потенциального проведения уроков нетрадиционной музыкальной культуры, использования новых педагогических технологий, технических методов и средств, национальных и европейских музыкальных инструментов.

Abstract

This article describes the methods of working on skills and competencies by using interactive methods in music lessons, conducting non-traditional music culture lessons with quality and potential, using new pedagogical technologies, technical methods and tools, national and European musical instruments.

O'zbekistonimizda o'quvchi-yoshlarni musiqa madaniyati fani orqali ma'naviy- ma'rifiy faoliyatga yo'naltirish, sifatli ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini faollashtirish, ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy ishlarining o'rni va rolini qayta ko'rib chiqish, ta'lim islohatlarini amalga oshirish jarayonini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos holda e'tirof etish, dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Ta'lim-tarbiya- har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim va ustuvor masalasidir. Shuning bois mamlakatimizda bu masalaga davlat miqyosida ulkan e'tibor qaratilmoqda, respublikamiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni o'z vaqtida zarur ixtisosliklar bo'yicha tayyorlash, istiqbolli rivojlanish





dasturlariga muvofiq shakllantirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan”.¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiyani rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022 yil 2 fevral “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlatirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 112 qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy- huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan ta’lim tarbiya sohasiga juda katta e’tibor berilmoqda. Ta’lim sohasining musiqa va san’at yo‘nalishida ham yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha kerakli tavsiyalar berilgan. Besh tashabbusning birinchi tashabbusi - yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, istedodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ta’lim tarbiya jamiyat va millat ravnaqining boy omili va poydevoridir. Shu bois ham yangi O‘zbekistonda ta’lim tarbiya masalalariga kuchli e’tibor berilmoqda. Mamlakatimizda davlat – bosh islohatchi bo‘lib hisoblanadi. Ma’lumki, fuqarolari bilimiga ilmiy salohiyatiga tayangan davlatgina jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshiradi. Bugungi kunda siyosatimizda ma’naviy – barkamol insonlarni shakllantiruvchi muhim omil deb qaralmoqda. Jamiyatda kechayotgan islohatlarda, o‘zgarishlarda ta’lim tarbiya sohasi muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlarga, innovatsion va axborot texnologiyalarga, multimedialarga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bunga sabab, shu davrgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi-talabalarga faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga o‘rgatilgan edi. Innovatsion texnologiyalar esa egallayotgan bilimlarni yechimini o‘zlari qidirib topishlari, mustaqil o‘rganib tahlil qilib, xato va xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqishlariga o‘rgatadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchi

¹ Sh.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi”






faolliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritadi va uni amalga oshiradi. «Interaktiv» metod deganda biz jamoa bolib fikrlash degan ma'noni tushunamiz. «Innovatsiya» so'zi esa «Yangilik kiritish» degan ma'noni anglatadi. Innovatsion texnologiyalarni eng asosiy maqsadi o'qituvchi va talabalarni belgilangan maqsadga natijaga hamkorlikda tez va oson erishishidir. O'qituvchi bu jarayonda «Boshqaruvchi», «Yo'naltiruvchi» vazifasini bajaradi. O'quvchilar esa asosiy «bajaruvchilar» vazifasini amalga oshiradilar. O'qitish jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, izlansalar, xulosa chiqara olsalar, guruhlar esa bir-birlariga baho bera olsalar, bu vaqtda o'qituvchilar ularga bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratib bersalar, bu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, maqsadni amalga oshirish, kafolatlangan natijaga erishish uchun tanlangan mazmun, metod, texnologik jarayonga va belgilangan ketma-ketlikka bog'liq. O'qituvchi va o'quvchilarni maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiya tanlashlari ularning ixtiyorida. Chunki ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga qaratilgan. Bunda o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyalar tanlanadi. Masalan, kompyuter bilan ishlash, tarqatma materiallarni, chizma va slaydlarni, turli adabiyotlardan, axborot texnologiyalardan xohish-istaklariga qarab tanlashga bogliq. O'qituvchi har bir darsni yaxlit holatga ko'ra rejalashtirib, dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi uchun oldindan puxta oylab tuzilgan bo'lishi darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bogliq. Darsning texnologik xaritasini qay korinishda yoki shaklda tuzilishi oqituvchining tajribasi o'z oldiga qoygan maqsad hamda vazifalariga bog'liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lmasin unda dars jarayoni «yaxlit» holda aks ettirgan bo'lishi hamda belgilangan maqsad-vazifalar kafolatlangan natijada dars jarayonida to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi shart. Musiqa madaniyatini kengroq o'rganish uchun kompozitorlarning uy muzeylariga, konsertlarga, musiqiy festivallarga, musiqiy tanlovlarga sayohat qilish yoki video tasma yordamida biror mavzuga oid musiqiy sayohatni tashkillashtirish darsni mazmunli tashkil etish samarali va kafolatlangan natija beradi. Sayohat obyektlari dars mavzusiga bevosita aloqador bolishi muhim shartlardandir. Bu o'z navbatida sinfda o'tilgan darslardan ancha samaraliroq bo'lib, o'quvchilar ongida uzoq saqlanib qoladi. Innovatsion texnologiyalar shunday bir narsaki, bevosita tarbiyalanuvchilar ko'rib, eshitib turgan narsalar orqali ularga o'z qalbini, fikrlarini yetkazish imkoniyatini beradi. Darhaqiqat, innovatsion texnologiyalar taraqqiy etgan mamlakatlarda ta'lim sohasidagi siyosatlarning





bosh vazifasi sifatida qarab kelingan. Bu sohada «YUNESKO» ham jonbozlik korsatib 1971-yil Fransiyaning sobiq bosh vaziri Edgaro Foroga jahonda ro'y berayotgan o'zgarishlar asosida ta'limning maqsadini, rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash vazifasini yuklaydi. Natijada, 1972-yilda «Mavjudlik uchun kurash», «Tarbiya dunyosi bugun va ertaga» mavzusidagi kitoblar dunyoga keladi. Bu asarlarda zamonaviy texnologik ta'lim tizimini va mazmunini yangilangan xarakterlanuvchi asosiy kuch ekanligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, texnologiyalarni loyihalash tizimida har xil, turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, V.A.Monaxov, M.A.Choshamov, V.P.Bespalko, I.Ya.Lerner, M.Ochilov, R. Ishmuhammedov, M.Inomova kabi taniqli olimlar o'z hissalarini ta'limni innovatsion texnologiyalar rivojlanishiga qo'shganlar. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi sohasidagi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimlar tizimini egallabgina qolmay, balki ko'nikma va malakalar hosil qilib boradilar. **Bilim** — o'quvchilarni o'qish jarayonida puxta o'zlashtirgan o'quv materiallari haqidagi ma'lumot. **Ko'nikma** — o'quvchilarning olgan bilimiga asoslanib, belgilangan vazifalarni bajarishga doir harakatlar yig'indisi. **Malaka** — ongli hatti-harakatlarning singib ketgan qismi. Malaka bir narsani ko'p marta takrorlash asosida hosil qilinadi. Ya'ni shu narsani alohida qayd etish lozimki, ko'nikma va malakaning umum hajmda farq qiluvchi tamonlari bor. Umumiy tomoni shundaki, qilingan barcha harakatlar amaliyotda qollaniladi farqi esa o'quvchilar chaqqonlik, ongliklik, ziyraklik, vaziyatga kira olish kabi qobiliyatlar bilan bir-biridan farq qiladi. Bunday darslar o'quvchi talabalarni bilim darajasini aniqlashga, baholash va rag'batlantirishga, jamoa bolib ishlashga va bir-birlarini fikrlarini hurmat bilan tinglashga keng imkoniyatlar beradi. O'quvchilarni musiqiy did va musiqiy dunyoqarashini shakllanishiga asos soladi. O'qitish jarayoni o'quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llashda ularni mustaqil erkin fikrlashga, o'z ustilarida ishlashga, izlanishga o'rgatadi. Mashg'ulotlar davomida o'quvchilar mavzuni interaktiv metodlar (jamoa bo'lib ishlash) orqali o'zlashtiradilar. Mavzu yuzasidan noananaviy darslar turiga: «Klaster», «Bumerang», «Aqliy hujm», «Veer», «Blits o'yin», «Zig-zag», «Charxpalak» kabi texnologiyalar qo'llaniladi. Interfaol ta'lim uslublarni mazmuni o'quvchilarni kelajakda yetuk mutaxasis, dunyoqarashi keng, erkin fikrlovchi, musiqani san'atni sevuvchi qadrlovchi shaxs sifarida amaliy faoliyatiga tayyorlash, ularni ilmiy nazariy bilim va mahorat bilan





qurollantirishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun amaliy mashg'ulotlar jarayonida ijodiy mehnat qilish talab etiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avliyoqulov N. H. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – T.: 2001.
2. Azizxo'jayeva N.N Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.:2006.
3. Ishmuhamedov R va boshqalar Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari tarbiyachi – o'qituvchilari va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar) – T.: "Istedod", 2010.
4. G. Sharipova. Musiqa o'qitish metodikasi (ma'ruzalar matni). TDPU 2000y

